

International Scientific Conference

International Conference on  
Innovative Development of  
Education 2022/20

ISSN: 2181-3515

ERUS.UZ

28 December, 2022 YEAR



PKP | INDEX

Uzbekistan, Tashkent

## “Educational Research in Universal Sciences”



## “INTERNATIONAL CONFERENCE ON INNOVATIVE DEVELOPMENT OF EDUCATION 2022/20”

[www.erus.uz](http://www.erus.uz)

**Languages of publication:** o‘zbek, english, русский, қазақ, тоҷик

**TASHKENT, UZBEKISTAN  
2022/ DECEMBER 28**



## “MAHSULOT VA XIZMATLARNI SERTIFIKATLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA” GI QONUN SHARHLARI

**Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o‘g‘li**

Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti magistranti

E-mail: [kamoli90@mail.ru](mailto:kamoli90@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Ushbu ishimizda “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi qonunni qisqacha sharhladik va raqamli iqtisodiyot davrida sertifikatlash tizimini naqadar ahamiyatli ekanligini bayon etdik.

**Kalit so‘zlar:** Sertifikatlashtirish, sifat, akkreditlash

### ABSTRACT

In this work, we briefly explained the Law “On Certification of Products and Services” and explained how important the certification system is in the era of the digital economy.

**Key word:** Certification, quality, accreditation

Sertifikatlashtirish deganda, mahsulot (buyum, tovar) yoki xizmat muayyan standartga yoki texnikaviy shartlarga muvofiq kelishini tasdiqlash maqsadida o‘tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot (buyum, tovar)ning sifati haqida iste‘molchini ishontiradigan tegishli hujjat - sertifikat beriladi. Sinash – bu o‘rnatilgan muolajaga muvofiq holda bir yoki bir nechta xarakteristikani aniqlash. Sinash laboratoriyasi – sinashlarni o‘tkazadigan laboratoriya. Akkreditlash tizimi – Akkreditlashni o‘tkazish uchun protseduralar va boshqaruvning o‘z qoidalariga ega bo‘lgan tizim. Akkreditlash – Protsedura bo‘lib, uning vositasida vakolatli idora shaxs yoki idoraning muayyan ishni bajarish huquqiga ega ekanligini

rasmiy tan oladi. Akkreditlash bo'yicha idora – Akkreditlash tizimini boshqaruvchi va akkreditlashni o'tkazuvchi idora. Inspektsiya tekshiruvi – sertifikatlashtirish va akkreditlashda o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlashtirilgan mahsulot, sifat yoki ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, sinash laboratoriyalari (markazlari) ning faoliyatini takroriy baholash protsedurasi. Sifat – O'z tafsilotlari majmuining talablarga muvofiqlik darajasi.

“Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan bo'lib 4 ta bob va 23 ta moddadan tashkil topgan. Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun talablari 10-11- 12-moddalarda bayon qilingan. Xususan, majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish ishlarini tashkil etish «O'zstandart» zimmasiga yoki uning topshirig'iga binoan boshqa sertifikatlashtirish organlariga (ularni albatta akkreditatsiya qilgan holda) yuklatiladi Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasida mahsulotlar, xizmatlar va boshqa ob'ektlarni (matnda bundan keyin «mahsulotlar» deb yuritiladi) sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini; shuningdek sertifikatlashtirish shtirokchilarning huquqlari, majburiyatlarn va javobgarligini belgilab beradi. Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar ishlatilgan: sertifikatlashtirish milliy tizimi, mahsulotlarni sertifikatlashtirish, muvofiqlik sertifikati, muvofiqlik belgisi, bir turdagi mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish tizimi, sinov laboratoriyasini akkreditatsiya qilish. Quyidagilar sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy-huquqiy asoslarini tashkil etadi: O'zbekiston Respublikasining “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida”gi Qonuni; O'zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida”gi Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 avgustdagi 409-sonli “Sertifikatlanishi majburiy bo'lgan mahsulotlar ro'yxatini, sertifikatlashtirishni o'tkazish tartibini, O'zbekiston Respublikasi hududiga xavfsiz ekanini tasdiqlash talab qilinuvchi tovarlarni olib kirish va o'z hududidan olib chiqishi tartiblarini tasdiqlash haqida”gi qarori; O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 3 oktabrdagi 342-sonli “Mahsulot va xizmatlarni standartlashtirish, metrologiyasi va sertifikatlashtirishni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori; Sertifikatlashtirish milliy tizimining asoslanuvchi me‘yoriy hujjatlari “O‘zstandart” agentligi O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo‘yicha milliy organi bo‘lib, amaldagi qonunchilikka binoan quyidagi faoliyatlarni bajaradi:

- sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi;
- mahsulotlar, ishlar va xizmatlar sertifikatlanishini o‘tkazish bo‘yicha xalqaro me‘yorlar va standartlar bilan uyg‘unlashgan umumiy qoidalar hamda tartiblarni o‘rnatadi;

- sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha dasturlar loyihalarini ishlab chiqadi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi;

- Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda sertifikatlashtirishning xalqaro tizimlariga qo‘shilish haqidagi qarorlarni qabul qiladi hamda standartlashtirish natijalarini o‘zaro tan olish xususida kelishuvlar tuzadi;

- O‘zga davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘tadi. Sertifikatlashtirish bo‘yicha ISO tarkibidagi qo‘mita tomonidan tayyorlangan hujjatda uchinchi tomon tarafidan amalga oshiriladigan sertifikatlashtirishning 9 ta sxemasi berilgan bo‘lib, respublikamizda ham aynan shu 9 ta sxema tatbiq etilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Toru Yoshizav, Handbook of optical metrology, 2008.
2. A.E.Fridman, Quality of Measurements. A Metrological Reference, 2012.
3. Дворин В.М., Абдуазизов А.А. Метрология стандартизация и управление качеством. Учебное пособие, Ташкент, 2005.
4. Клевлеев В.М. Метрология, стандартизация и сертификация. Учебник. Москва, ИМПРАМ., 2004, 422 стр.
5. Сергеев А.Г. Основы метрологии, стандартизации и сертификации. Учебник, Москва, ЛОГОС, 2001,398 стр.

## ОИЛАВИЙ ШАХСЛАРАРО МУНОСАБАТЛАР ФАРЗАНДЛАР ХАРАКТЕР АКЦЕНТУАЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНИШИ ОМИЛИ ЭКАНЛИГИ

**Кулдашева Камола Ахмадалиевна**

Кузон Давлат Педагогика институти

Психология 1-курс талабаси

### АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада ўсмир шахси характер хусусиятларини шаклланишида оилавий шахслараро муносабатларнинг таъсири, уларни ижтимоийлашувидаги дезадаптацияга олиб келишнинг омиллари, шунингдек, психопрофилактик ва психокоррекцион имкониятларининг айрим жиҳатлари ёритилган.

**Калит сўз:** ўсмир, характер хусусиятлар, дезадаптация, микромуҳит, гормонал етилиш, стереотип, эмансипация реакцияси, персонификация, гиперпротекция, агрессив ҳолат.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается влияние семейных межличностных отношений на формирование черт характера подростка, факторы, приводящие к дезадаптации в их социализации, а также некоторые аспекты психопрофилактических и психокоррекционных возможностей.

**Ключевые слова:** подросток, черты характера, дезадаптация, микроокружение, гормональное созревание, стереотип, реакция эмансипации, персонификация, гиперпротекция, агрессивное состояние.



## ABSTRACT

This article notes the influence of family interpersonal relations on the formation of adolescent character traits, factors leading to maladaptation in their socialization, as well as some aspects of psycho-prophylactic and psycho-corrective possibilities.

**Key words:** adolescence, cherty character, disadaptation, microenvironment, hormonal maturation, stereotype, reaction emancipation, personification, hyperprotection, aggressive state.

Шахс характерининг шаклланишига кучли таъсир этувчи бевосита муҳит бу микромуҳитдир. Аввало, бу ўсмирнинг қобилиятларини ривожлантирувчи, характерини шакллантирувчи жамоа, унинг ота-онаси, қариндошлари, тенгдошлари, мактабгача муассасаса тарбиячилари, педагоглар ва бошқалардир. Келтирилган микромуҳит инсонга икки ёқлама таъсир кўрсатади:

- жамият томонидан ташкил этилган стереотиплар яъни, анъаналар, қоидалар, меъёр ва кундалик ҳаётдаги одатий шароитлар орқали;

- шунингдек, яқин муҳитнинг ўзига хос бўлган хусусиятлари натижасида.

Ўсмирларда характер хусусиятларининг шаклланишига энг муҳим омил сифатида оила таъсир этади.

Дарҳақиқат, келажагимиз пойдевори бўлган ёшларнинг таълим-тарбияси, аввало, оилада шаклланади. Шахсга хос бўлган характер хислатлари, шунингдек, миллатимизга хос бўлган этник хусусиятларимиздан, катталарни эъзозлаш, кичикларни иззат қилиш, Ватанни севиш ва бурч каби хислатларимиз камол топади.

Юқорида таъкидлаганимиздек, ўсмирларда характер хусусиятларининг шаклланишига таъсир этувчи бир қатор компонентлари оилада шаклланиб бориши билан биргаликда, носоғлом бўлган оила шароитида тарбия топаётган фарзандлар хулқ-атворида ўзига хос бўлган салбий индивидуал психологик хусусиятларнинг шаклланишига сабаб бўлмоқдадир.

Бир гуруҳ психологларнинг аниқлашича, характернинг янги сифатларини юзага келиши ва уларнинг мустақамланиши реал вазиятни тақозо этади. Шунинг учун ҳам хатти-ҳаракат одатни, одат эса характерни ва характер тақдирни яратади, деган фикр мавжуд [1]. Характер қандайдир турғун ва ўзгармас хусусият эмас. Жумладан, ўсмирлик ёшида характернинг хусусиятлари одатда «жиддийлашиш», «бошқача бўлиб қолиш» тарзида кўринадики, бу ҳол ижтимоий омиллардан яъни, атрофдагиларга нисбатан муносабатнинг мураккаблашуви, гормонал етилиш натижасида намоён бўла бошлайди. Шахс характердаги ўзгаришларни етарлича ҳисобга олмаслик зиддиятли ва низоли муносабатларни вужудга келтиради. Айни шу даврда ўсмир характерида акцентуация хусусиятлари, жумладан, эмансипация реакцияси (катталар қармоғидан «озод» бўлишлик), тенгқурлари билан гуруҳлашиш реакцияси, иштиёқ реакция (хобби реакция)си кабилар устиворлик қилади.

Айнан ўсмирлар ўртасида содир этилаётган девиант (хулқи оғишган) хулқ-атвор кўринишлари жумладан, жиноятчилик, гиёҳвандлик, агрессивлик, суицид каби турли жамиятимиз учун ёт бўлган иллатлар оилада шахслараро муносабатларнинг тўғри ташкил этилмаганлигидан келиб чиқмоқда. Бунда, ота-оналар фарзандлари тарбиясига бефарқ, лоқайд муносабатда бўлиши, оилада соғлом турмуш тарзини тўғри йўлга қўйилмаганлиги, ота-оналарни фарзандларининг ёшига хос бўлган психологиясини, уларга хос бўлган шахслараро муносабатлар тўғрисидаги билимларини етишмаслиги туфайли жамиятимиз учун зид бўлган хатти-ҳаракатларнинг юзага келаётганлиги, натижада, илмий асосланган ота-оналар ва фарзандлар ўртасидаги муносабатларнинг психологик жиҳатларини очиб беришлигини тақозо этади.

Тўғри, ҳозирги глобаллашув ва интеграциялашув жараёнларининг кучайиши муносабати билан оиланинг этнопсихологик хусусиятларидаги миллий барқарорлик сусайиб, замонавийлашиш тенденцияси яққол кўзга ташланмоқда. Бу фикрга В.В. Бойко ҳам қўшилиб, ўсмирларда характер



шаклланишига таъсир этувчи замонавий оилаларнинг ўзига хос хусусиятларини қуйидагича ажратиб кўрсатади [1]:

-Биринчидан, оиланинг кам ўсмирлик ва нуклеарлигидир;

Замонавий оила кўп ўсмирли ва кўп авлодли оиладан фарқли равишда ўсмир характерининг шаклланишида ўзига хос ижтимоий-психологик муҳитни ташкил этади. Бу ерда шахслараро муносабатларнинг қисқа занжири устунлик қилади, оила аъзоларининг ўзаро бир – бирига таъсир этиш воситалари чегараланган, шунингдек, тақлид қилиш учун намуна ва вазиятлар ҳам кам шаклланганлиги билан фарқланади.

- Иккинчидан, оиладаги ўта боғлиқ ва бир хилдаги муносабатлар оқибатида ўсмирларнинг ота-она хулқи намуналарини мустаҳкам эгаллашлари эҳтимоллигини оширади. Ота-оналар хулқ-атворидан танлаб олиш чегараланган бўлганлиги сабаб, ўсмир ижтимоий-типик хусусиятларни эгаллаши, қайсики, ўзида ҳам микромуҳит, ҳам индивидуал хусусиятларининг акс этиши эҳтимолидан ҳоли эмасдир.

Келтирилган турли илмий маълумотлардан келиб чиқиб таъкидлаш мумкинки, замонавий оиланинг ўзига хос хусусияти ўсиб келаётган шахс учун инсонпарварлик тажрибасининг чекланганлиги билан ифодаланади.

Ёш оилаларимизда ўсмирлар, катта кишилар ва бошқа шахсларга нисбатан коммуникатив толерантлик (бағрикенглик) сифатлари етарлича машқ қилинмаганлиги, маълумот алмашиниш қониқарли эмас, бори ҳам оммавий ахборот воситалари билан алоқа ўрнатиш орқали амалга оширилиши, шунингдек, «биз» тушунчаси ва унга муносабат етарлича ривожланмаганлиги билан ажралиб туради. Кўпгина ҳолатлар оқибати сифатида юқори даражада ўсмирнинг «персонификатцияси»<sup>3</sup> яъни, оила даврасида ўсмирларнинг ўз «мен» ини кўрсатиши ҳисобланиб, бу ўзининг ҳақлигини таъкидлаш, ўзини ота-оналарга қарама-қарши қўйиш, уларга қарши ҳаракатлар қилиш, уларнинг қадри(обрў)ни инкор этиш, улар бераётган маслаҳатдан тўлиқ фойдаланмаслик

орқали намоён бўлади. Бу эса характер акцентуациясига хос бўлган бегоналашишнинг айрим шакллари юзага келтиради.

Айни вақтда оилада шаклланган бегоналашиш ўсмирларнинг бошқа доираларда яъни, турли гуруҳлар ва соатлаб ахборот воситалари билан банд бўлишига олиб келмоқда. Оилада қондирилмаган шахслараро муносабатлар эҳтиёжини ўсмир, энди норасмий гуруҳлардан қизик ва ноанъанавий машғулотлар билан шуғулланаётганини кузатишимиз мумкин. Бу хусусда, ўсмирлар ва ота – оналар ўртасидаги ўзаро таъсир муносабати жараёнидаги айрим негатив ҳолатларни В.В.Бойко қуйидагича талқин этади [1].

Ўта қатъий муносабатлар циркуляцияси. Бунда, ота – оналарнинг ўта талабчанлиги, ўсмирларда ихтиёрсиз шахснинг нуқсонли хислатларини келтириб чиқаради. Бу ўз навбатида ота – оналарнинг ўсмирга нисбатан муносабатида янада қатъий ҳолатларнинг ҳосил бўлишига олиб келади.

Муносабатларнинг агрессив ҳолати циркуляцияси эса бемехрлилик, кўполлик ва ота – оналарнинг кўрслиги ўсмирда агрессивлик реакциясини уйғотади ва ўзаро муносабатлар жараёнида зиддиятларни кучайтиради.

Муносабатларнинг келишувчанлик ҳолати циркуляцияси. Бу ҳолатда ота – оналар комплекси ўсмир комплексини ҳаётга йўналтиради. Масалан, ота – онанинг доимий равишда ўсмирдан норозилиги, уни танқид қилиши, уришиши, ўсмирда айбдорлик хиссини шакллантириб, уни мактабда, мактабдан ташқари жамоаларда ҳимоя реакцияларининг етишмаслигига, мулоқотда ўзини четга тортишини, ўз – ўзини ҳимоя қила олмаслик, бирор таъсирга тезда жавоб қайтара олмасликларини ва ўзларини тезда йўқотиб қўйишга олиб келади. Ўсмирнинг бундай хулқ атвори ота – оналари ва атрофдагиларнинг уни бошқаришларига, бошқаларга боғлиқ бўлиб қолишга сабаб бўлади.

Кетма – кет бўлмаган муносабатлар циркуляцияси. Бунда ота – оналарнинг тарбиясидаги эҳтиётсизлиги, лоқайдлиги ва талабчан эмаслиги билан ажралиб туради. Ўсмирга нисбатан қўйилган талаблар ё ўзини оқламаган ёки ўта юмшоқ кўринишда бўлиб, муайян бир ҳаракат учун бир сафар жазоласалар, кейинги

сафар безътиборсиз қолдирадилар. Бундай ҳолатларда ўсмир хулқ – атвор нормаларидан, бурч, маъсулият ҳисси ҳақида муайян тасаввурлар ҳосил бўлмайди.

Юқорида келтирилган тарбия шаклларига ўхшаш сифатлар ўсмирда куйидаги акцентуация хусусиятларини юзага келтиради [3]:

- гиперпротекция (юқори ҳимоя) – характернинг истероид ва гипертим сифатларини ривожланишига таъсир кўрсатади;

- доминацияловчи гиперпротекция – характернинг астеник хусусиятларини кучайтиради;

- ўсмирнинг эмоционал рад этилиши эпилептоид типини шакллантиради;

- ўта кучли ғоявий маъсулият – психоастеник характерни ривожланишини стимуллаштиради;

- назоратсизлик – ўсмир характерининг ўта ўзгарувчан, беқарор бўлишига сабаб бўлади.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, оиладаги турли туман тарбия шакллари тарбияланувчи хусусиятларига мос келиши, яъни ўсмирнинг индивидуаллигидан, ёш хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда танланиши мақсадга мувофиқдир. Акс ҳолда, ўсмир характер хусусиятларида номақбул кўринишларни юзага келишига олиб келади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)**

1. Бандура А., Уольтерс Р. Подростковая агрессия. Изучение влияния воспитания и семейных отношений. М.: Апрель Пресс, 1999, с. 512)

2. Бойко В.В. Трудные характеры подростков. – Санкт – Петербург.:Издательство «Союз», 2002.

3. Личко Е. Психопатии и акцентуации характеров у подростков. – М.: Медицина, 1983.



**“MU’JAM UL-UDABA” ASARINING ABU RAYHON BERUNIY  
NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI QO‘LYOZMALAR  
XAZINASIDA SAQLANYATGAN TOSHBOSMA NUSXASI TAVSIFI**

**Madiyor Fattiloyev**

TDSHU tayanch doktoranti

Gmail: [madiyorfatilloev@gmail.com](mailto:madiyorfatilloev@gmail.com)

**ABSTRACT**

This article describes the description of the lithography copy of the writer, geographer, historian, poet and literary critic, Arab scientist Yaqut al-Hamawi called "Mu'jam ul-udaba" kept in the manuscript treasury of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni from the point of view of source studies. The state of preservation, size, volume, publisher and paleographic features of this book are reflected in the following article.

**Key words:** Yaqut al-Hamawi, “Mujam ul-udaba”, D.S. Margouliouth, Ahmad Alawi, E.J.W. Gibb Memorial

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola yozuvchi, geograf, tarixchi, shoir va adabiyotshunos, arab olimi Yoqut al-Hamaviyning “Mu’jam ul-udaba” nomli asari Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida saqlanyatgan toshbosma nusxasi tavsifini manbashunoslik nuqtai nazardan bayon qiladi. Ushbu toshbosma asarning saqlanish holati, o‘lchami, hajmi, noshiri va paleografik xususiyatlari quyidagi maqolada o‘z aksini topgan.

**Kalit so‘zlar:** Yoqut al-Hamaviy, “Mu’jam ul-udaba”, D.S. Margolios, Ahmad Alaviy, E.J.W. Gibb Memorial

Yoqut al-Hamaviy nafaqat arab dunyosi ilm faniga, balki butun insoniyat ilm faniga o‘zining ikki buyuk asari “Mu’jam ul-buldon” va Mu’jam ul-udabo” bilan katta hissa qo‘sha olgan olimdir.<sup>1</sup> Uning “Mu’jam ul-udaba” asari Marv, Xorazm, Buxoro, Samarqandlik olimlarning hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar beradi. Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida “Mu’jam ul-udaba” asarining ikkinchi tomi toshbosmasi Asosiy litografiyada 20367 inventar raqami ostida saqlanib kelinadi.

Kitob 1925-yilda Londonda LUZAC&CO.,46, GREAT RUSSEL STREET, W.C. nashriyotida Oksford universiteti Arab tili professori D.S. Margolios tahririda THE TRUSTEES OF THE E.J.W. GIBB MEMORIAL dasturi asosida chiqqan ikkinchi nashr namunasi hisoblanadi.

Kitobning oxirgi betida E.J.W. GIBB MEMORIAL SERIES VOL. VI. 2 (Second Edition) deb yozilgan. Bu uning shu seriyali kitoblar jamlanmasi bilan bir qatorda nashr etilganini bildiradi. Kitob ingliz tilida THE IRSHAD AL-ARIB ILA MA‘RIFAT AL-ADIB OR DICTIONARY OF LEARNED MEN OF YAQUT deb nomlangan. Ushbu nusxa matni Qohirada bosilgan bo‘lsa, Sarlavha sahifalari va kirish so‘zlari Buyuk Britaniyada Kembrij universitetida nashr qilingan. Kitobning arabiy matnidan so‘ng, E.J.W. GIBB MEMORIAL dasturining nashr etgan kitoblar ro‘yxati ko‘rsatib o‘tilgan.

Tahrirchi ELIAS JOHN WILKINSON GIBB va uning xotirasiga bag‘ishlangan so‘zlarni berib o‘tgan. Undan keyin, 1909-yildagi birinchi nashr va 1924-yildagi ikkinchi nashrga har biri uchun bir betdan so‘z boshi berib o‘tilgan. Kitobning ushbu nusxasi 484 sahifadan iborat. O‘lchami 17x24. Kitob muqovasi qattiq. Rangi to‘q yashil. Muqovada:

مُعْجَمُ الْأَدْبَاءِ الْمَعْرُوفِ بِإِرْشَادِ الْأَرَبِ إِلَى مَعْرِفَةِ الْأَدِبِ تَأْلِيفَ شَهَابِ الدِّينِ يَاقُوتَ بْنِ عَبْدِ اللَّهِ الْحَمَوِيِّ  
deb kitob nomi va muallif nomi yozilgan. Kitobning dastlabki sahifasida xuddi shu matn takrorlanadi. Keyingi betda kitob nomi “Mu’jam ul-udaba” nomidan

<sup>1</sup> Madiyor Fatilloyev. SHAHOB UD-DIN ABU ABDULLOH YOQUT IBN ABDULLOH AL-HAMAVIY AR-RUMIY AL-BAG‘DODIY HAYOT VA IJOD YO‘LI. // So‘z san‘ati xalqaro jurnali. 5-son. T - 2022. B-11.

tashqari طَبَقَاتُ الْأَدْبَاءِ nomi bilan ham mashhur bo‘lgani haqidagi ma’lumot, tahrirchi ism sharifi va juz va nashr haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Uchinchi sahifa Bismilloh bilan Ahmad Alaviy al-Isfahoniy al-Kermoniy haqidagi ma’lumotlar bilan boshlanadi. Asar matni uchinchi to‘rt yuz yigirma to‘qqizinchi betlarda berilgan. To‘rt yuz o‘ttizinchi sahifadan to‘rt yuz sakson to‘rtinchi sahifaga qadar fihrist berilgan. Undan keyin tahrir to‘g‘risidagi rasmiy ma’lumotlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Birinchi nashrga kirish so‘zida muallif quyidagicha yozadi:

“Irshad al-arib”ning ikkinchi kitobi birinchisidek MS Bodl., yoxud 753 raqamli qo‘lyozmadan olingan. Ushbu kitob ijodkorlar ro‘yxatini “jim” harfigacha olib keladi va bu qo‘yozmaning 210a sahifasigacha olib keladi. Ushbu asarning matnini yaratishda Suyutiyning “Bug‘yat al-Vuat” asarini qo‘shish mumkin. Lekin, bu asar ibn Abbodning “Munajjim” asari bilan bir vaqtda uchragan. Unda ekspert sharhi bo‘lib, muallif uni e’tirof etgan. 1-kitobdagi ayrim ahamiyatga molik o‘zgartirishlar de Goeje tomonidan 1908-yilda 866-7 sahifalar uchun J.R.A.S.da taklif etilgan. Yana bir qator o‘zgarishlar muharrirga H.F. Amedroz tomonidan va ayrim mintaqa olimlari tomonidan taklif etilgan. O‘quvchiga oson bo‘lishi uchun oxirgi kitobda barcha ishlarning kamchilik va xatoliklari ko‘rsatib chiqiladi. Muharrir, bosma kataloglari bo‘lmagan kutubxonalar yoki to‘plamlarda ushbu asarning qarori yoki ajzasi borligini aniqlagan shaxslar o‘z bilimlarini unga yoki Vasiylardan biriga yetkazishiga chin dildan umid qiladi.

Oksford, 1909

Mazkur kirish so‘zdan kelib chiqadiki, u Oksford universiteti, Bodlean kutubxonasida 753-raqam ostida saqlanib kelgan qo‘lyozma nusxa katta yordam bergan. Asar matnini to‘ldirishda Suyutiy asari ham o‘z o‘rnida foyda bergan.

Ikkinchi nashrga kirish so‘zida muallif quyidagicha yozadi:

Ushbu nashrning matni 2-jildning muqaddimasida sanab o‘tilgan yangi manbalardan tuzatilgan. I jild. 2-nashr, ba‘zi boshqalar bilan birga izohlarda eslatib o‘tilgan. Bir necha sahifalar uchun (346 dan 349 gacha) matnning qolgan qismi asoslanganidan ko‘ra eskiroq qo‘lyozmadan foydalanish mumkin edi; Bu jildning



so‘zboshida eslatib o‘tilgan qo‘lyozmaga prefiksli fragmentdir. V, jilddagi kirish so‘zi III jildda ham aks etgan.

I - jildga kirish so‘zini yozganligidan yo‘qotilgan jildlarni qayta tiklash umididan voz kechgan 2-sonda yozuvchi oxirgi jildning nusxasiga ega bo‘lib, u jilddan boshlanadi. VI jild esa ishni tugatadi. Ushbu qo‘lyozma haqida dastlabki ma’lumot Leypsigda nashr etilgan “New Islamica” jurnalining birinchi sonida keltirilgan. U Sent-Jozef universitetidan Pere Cheyx va Beyrut Amerika universiteti professori Hittiga uni yaratishda yordam bergani uchun minnatdorchilik bildiradi. Professor Hitti boshqa yetishmayotgan qismni o‘z ichiga olgan qo‘lyozmani ya’ni, III, II va IV jildlarni ham topdi. Umid qilish mumkinki, to‘liq lug‘at uzoq vaqt davomida olimlar qo‘lida bo‘ladi, ular, ayniqsa, Sharq mamlakatlarida allaqachon nashr etilgan qismlarni yuqori baholagan va bu muharrirni juda quvontirdi. U Yoqutning tarjimai holi to‘plamini barcha yangi materiallar qo‘lida bo‘lmaguncha kechiktirishni oqilona tutilgan yo‘l deb hisobladi.

Oksford, 1929-yil, Noyabr oyi.

Mazkur kirish so‘ziga asoslangan holda shunday deyish mumkinki, aynan ushbu jildning yaratilish jarayonida matnshunos ancha o‘zi uchun yangi ma’lumotlar yig‘ishga erishgan. Unga xorijdan Pere Cheyx va professor Hittilar ko‘maklashgan.

Toshbosmaning poleografik xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, unda hech qanday g‘alozliklar mavjud emas. Sahifadagi qatorlar soni bir xilda ketmagan. Lekin, bu sahifalarda keltirilgan tushunchalarga berib o‘tilgan izohlar sahifa pastidan qancha joy olganiga qarab bo‘lgan. Har bir sahifada matn bor. Matn dona-dona qilib aniq va tiniq bosilgan va toshbosma o‘qish uchun juda qulay. Bob nomlari sahifa o‘rtasidan yozilgan. Tarjimayi holi ko‘rsatilgan adiblar nomlari har sahifa tepasida qo‘yilgan chiziq ustidan ikki qavs orasiga olib yozilgan. Betlarning raqamlari sahifaning yuqoridan chap qismida izchil qo‘yib chiqilgan. Matn har sahifada usti va ostidan tekis chiziq orasiga olingan. Ustki chiziq tepasida sahifada qaysi ijodkor hayoti va ijodi berilgan bo‘lsa, shuning ismi ko‘rsatilgan. Ostki chiziq ostidan esa, turli tushunchalarga izohlar berib ketilgan.

Xulosa qilib aytganda, Yoqut al-Hamaviyning “Mujam ul-daba” asari ikkinchi kitobi to‘liq va kamchiliklarsiz holda saqlanib kelinmoqda. Bu kitobga berilgan noshir so‘z boshisidan, uning qaysi qo‘lyozmaga asosan bosilgani topildi. “Mu’jam ul-udaba” yozma yodgorligining bugungi kungacha saqlanib kelyatgan qo‘lyozma nusxalarni qayerdan topish mumkinligiga ishora olishdan tashqari, bu kitob nusxasini qo‘limizda bo‘lgan Ehson Abbas nashri elektron nusxasi bilan solishtirishga imkon paydo bo‘ldi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. THE IRSHAD AL-ARIB ILA MA‘RIFAT AL-ADIB OR DICTIONARY OF LEARNED MEN OF YAQUT. London – 1925.
2. Madiyor Fatilloyev. SHAHOB UD-DIN ABU ABDULLOH YOQUT IBN ABDULLOH AL-HAMAVIY AR-RUMIY AL-BAG‘DODIY HAYOT VA IJOD YO‘LI. // So‘z san’ati xalqaro jurnali. 5-son. T - 2022.
3. ياقوت الحموي مؤرخا من خلال كتابه معجم البلدان. د. يوسف عبدالعزيز الحميدي. لبنان 2014
4. ياقوت الحموي شهاب الدين أبو عبد الله بن عبد الله (ت626هـ/1229م) و كتابه: معجم البلدان الاقتصادية: دراسة تاريخية. رقية عبد الله أحمد أبو ليل. فلسطين. 2011
5. معجم الأدباء ارشاد الأريب الى معرفة الأديب. ياقوت الحموي الرومي 1993
6. معجم البلدان. ياقوت الحموي الرومي. بيروت. 1977
7. جمال الدين أبو المحاسن يوسف بن تغري بردي. النجوم الزاهرة في ملوك مصر والقاهرة 1929

### Internet saytlari:

8. <https://muslimheritage.com>
9. <https://www.peoplelife.ru>
10. <https://www.noor-book.com>

## ABDULLA QAHHOR ASARLARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

**Isroilova Hulkar Baxtiyor qizi**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Abdulla Qahhor hikoyalarning leksik xususiyatlari aks etgan. Hikoyalarda soʻz maʼnolarining koʻchishi va usullari tahlil qilingan. Tilshunos olimlarning soʻz maʼnolarining koʻchishi haqidagi fikrlari aks etgan.

**Kalit soʻzlar:** soʻz maʼnolarining koʻchishi, metafora, ot metafora, feʼl metafora, sifat metafora, semem struktura, genetik sema.

### LEXICAL FEATURES OF ABDULLA QAHHOR’S WORKS

#### ABSTRACT

This article shows the lexical features of Abdulla Qahhor’s stories. The transfer of word meanings in the stories and their methods are analyzed. The opinions of linguists about the transfer of word meanings are reflected.

**Keywords:** migration of word meanings, metaphor, noun metaphor, verb metaphor, adjective metaphor, semim structure, genetic sema

Adabiyotimizda oʻchmas iz qoldirgan ijodkor Ibrohim Haqqul ayganidek: “Ijodkorni sayoz fikrlash, bachkana his-tuygʻularni qogʻozga koʻchirishdan, eng avvalo, til muhofaza qiladi. Tilga javobgarlik soʻz, tasvir, uslubga javobgarlik demak. Bir maʼnoda isteʼdod soʻzga jon bagʻishlash, oʻlik soʻzni ham tiriltirishdir. Isteʼdodsizlik esa buning aksi, hatto tirik soʻzni ham oʻldirishdir”. Ana shunday soʻzga jon bahshida etgan, oʻzbek adabiyotida oʻz asarlari bilan oʻchmas iz qoldirgan, adabiyotimizning zabardast vakillaridan biri Abdulla Qahhordir. Uning hikoyalari



tilining soddaligi, keskinligi hayotni boricha ko‘rsata olganligi bilan ajralib turadi. Abdulla Qahhor asarlari tilini o‘rganar ekanmiz mashhur Fransuz tilshunosi Ferdinand de Sossyurning aytganlarni yodga olsak: “Har bir matn zamirida til tizimi turadi”. Adib ham o‘z ijodida til imkoniyatlaridan mohirona foydalana olgan. Va bu tilshunos olimlarimizning e‘tiborini tortmay qolmagan. Abdulla Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasi bo‘yicha qilingan dastlabki ishlardan biri N.Mahmudovning “Abdulla Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasiga doir” nomi ostida chop etilgan maqoladir. Olim unda yozuvchining so‘z tanlash mahorati, umumxalq tilidan samarali foydalanishi, kinoya, ibora, o‘xshatish vositalari hamda gapning sintaktik qurilishining o‘ziga xosligi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tadi. Shu bilan birga u adib asarlarining lingvopoetik aspektida atroflicha o‘rganishni dolzarb deb qo‘yadi va uni o‘zbek filologiyasining muhim vazifalaridan biri deb belgalaydi. Abdulla Qahhor asarlarida ko‘chma ma’noli so‘zlarning ishlatilishi salmoqli o‘rinni egallaydi. Adib ko‘chma ma’noli so‘zlarni o‘z o‘rnida, mahorat bila qo‘llay olgan. Bizga ma’lumki, so‘z ma’nolarining ko‘chishi o‘zbek tilida 4 xil yo‘l bilan sodir bo‘ladi. Metafora, metanimya, sinekdoxa va vazifadoshlik. Jahon tilshunosligida ham so‘z ma’nolarining ko‘chishi bo‘yicha turli qarashlar mavjud. Xususan, fransuz tilshunosi J.Maruzo ko‘chma ma’nolarni 3 turga ajratadi: metafora, metonimiya, sinekdoxa. Rus tilshunoslaridan A.A. Reformatskiy va D.N. Shmelev esa aksincha so‘z ma’nolari ko‘chishini 4 turga ajrataib, 4-tur sifatida funksiyaoshlik hodisasini ham qayd etgan. Demak, bizdagi nazariya fransuz tilshunoslarinikidan biroz farq qilib, rus tilshunoslarning so‘z ma’nolarining ko‘chishi haqidagi fikrlariga oxshash. Ko‘chma ma’noli so‘zlar ekspressivlik, obrozlilik, emotsional xis-tuyg‘ularni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Aynan ko‘chma ma’noli so‘zlar badiiy adabiyotda nutqning ta’sirchanligini oshirish, kitobxonda kuchli taassurot uyg‘otish maqsadida ishlatiladi. Ma’no ko‘chishining 4 ta turi bo‘ladigan bo‘lsa, ular ichida badiiy asarda eng ko‘p uchraydigan turi metaforadir. Aristotel o‘zining “Poetika” asarida yaxshi metafora yaratish uchun narsalarning o‘zaro oxshash tomonini ko‘ra olish kerak degan edi. Uning metafora bu bir narsa-hodisa nomining boshqa narsa-hodisa nomiga ular

o‘rtasidagi oxshashlik asosida ko‘chishi deya bergan ta‘rifi metaforaga berilgan ilk mumtoz ta‘rif deya tan olingan. Demak, metafora o‘xshashlik asosida ma‘noning ko‘chishidir. Keyinchalik metaforaga ham tilshunos olimlar tomonidan turlicha ta‘riflar berilgan. Jumladan, A.A.Potebnya “Metafora qisqargan o‘xshatishdir” desa, E.Kassirer esa: “Ko‘plab o‘xshatishlar metaforadan kelib chiqqan” deya ta‘rif beradi. O‘zbek tilshunosligida metafora haqidagi dastlabki ma‘lumotlar R.Qo‘ng‘urov, M.Mirtojiev, M.Mukarramov, E.Qilichev kabi olimlarning ilmiy risolalarida uchraydi. Metaforalarni o‘zi ham ma‘lum ma‘noda nominatsiya jarayonini boshqaradi va shu jihatidan ikki turga bo‘linadi. Bular: lingvistik metaforalar va badiiy metaforalar. Lingvistik metaforalar borliqda nomi yo‘q narsa-tassavurga nom bersa, badiiy metaforalar uni qayta nomlaydi. Metaforalar o‘z xususiyatiga ko‘ra doimiy va xususiy metaforalarga bo‘linadi. A.A.Hasanov Abdulla Qahhorning individual metaforalarni yaratishda ot, sifat, fe‘l turkumiga oid leksemalardan umumli foydalanganini ta‘kidlab o‘tgan.

Masalan: Kecha shuning uyidan xotin kishining achchiq-achchiq yig‘lagan tovushi eshitildi. (“Jonfig‘on”) Berilgan parchada achchiq leksemasi metaforik ma‘noda qo‘llangan. Bu so‘z qaqadimgi turkiy tildagi achi fe‘lidan -q qo‘shimchasi bilan yasalgan. Uning semem strukturasi quyidagicha: a) ta‘mi og‘iz tilni achitadigan, lo‘vullatadigan b) nordon, tishni qamashtiradigan c) jazillatadigan, jonni achitadigan. Achchiq so‘zi gapda g‘am-iztirobli, alamli ma‘nolarida kelyapti. Yoki “Oy yuzli, shirin so‘zli Shahrinisoxonga. O‘zimni sog‘-salomatligimni bildirish barobarinda siz go‘zal yorimning ham o‘ynab-kulib yurishingizni tabiatning nozik joylaridan tilab qolaman”. (“Sep”) Bu yerda oy va shirin so‘zlari metaforik ma‘no ifodalagan. Oy so‘zining semem strukturasi quyidagicha: a) yerning yo‘ldoshi b) yilning o‘n ikkidan bir qismi c) chiroyli, go‘zal. Bunda a va b semalar oy leksemasining genetik semasi hisoblanadi. Metaforik ma‘nonig hosil bo‘lishida c sema asos bo‘lib xizmat qilgan. Yuqorida berilgan parchalardan achchiq va shirin so‘zlarini sifat metaforaga kirita olamiz. Abdulla Qahhor metaforik ko‘chma ma‘no hosil qilishda fe‘l metaforalardan ham foydalangan. Tilshunos A. Abdullayev o‘zining

“O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi” kitobida fe‘l metaforalarda ekspressivlik asosan, holatning intensivlik nuqtai nazaridan sodir bo‘lishi hamda fe‘l metaforalar hayvonot, parranda, o‘simlik, hasharot kabilarga xos harakatlarning insonga ko‘chirilishi asosida yaratilishini ta’kidlaydi.

Uning so‘zini bosib tushadigan zo‘r gapni xayrlashganda topib aytish umidi bilan o‘ziga tasalli bergan edi, bu ham bo‘lmadi. Xayrlashganda Sherali shunday bir ahvolda ediki, kuzatgani chiqqanda kimdir “bola bechorani muhabbat eltibdi-ku”deb qo‘ydi(“Sep”). “So‘zni bosib tushadigan gap”. Bu yerda bosmoq so‘zi metaforik ma’noda kelgan. Fe‘l metaforag kiradi. Bosmoq so‘zining ma’nolari quyidagicha : a) ustiga oyoq qo‘ymoq b)ustidan yurib, o‘tib ezmoq, shikastlamoq yoki o‘ldirmoq c) qo‘l bilan ushlab turmoq, ezg‘ilamoq d)og‘ilik qilmoq ezg‘ilamoq e)kuch bilan itarmoq siqmoq f)zarb bilan urib yasamoq g) o‘z og‘irligi yoki elastik kuchi bilan ta’sir qilmoq, siqmoq va hakazo.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Ibrohim Haqqul “Abdulla Qahhor jasorati”. -T.:Fan,2007.
- 2.A. Hasanov “Abdulla Qahhor hikoyalari tilining badiiyatini ta’minlovchi leksik-stilistik vositalar” nomzodlik dissertatsiyasi 2010.
3. A. Hasanov “Hozirgi o‘zbek tilida so‘z ma’nolarining ko‘chishi”.-T.: Adabiyot uchqunlari 2017
- 4.Unlibrary.uz

## POSITIVE AND NEGATIVE EFFECTS OF ANTIBIOTICS

**Yusupbekova Xurshida**

Zangota Abu Ali Ibn Sino nomidafi Jamoat salomatligi texnikumi

**Zufarov Fozil**

Zangota Abu Ali Ibn Sino nomidafi Jamoat salomatligi texnikumi

### ABSTRACT

Antibiotics are medicines that treat a bacterial infection by either killing the bacteria or preventing it from growing. It works for bacterial infections and sometimes protozoal infections, but is not effective enough for viral diseases. A person can take it orally or by injection. The revolution of antibiotics in medicine began in the 20th century, during a period when there was a significant decrease in the incidence. An antibiotic shortens the time period of a health problem, benefiting everyone involved in its production and consumption. Although it has eradicated several diseases, the widespread use of the drug and its easy availability have made microbes and bacteria resistant to it. In addition, some recent reports have drawn conclusions about mild and severe effects of antibiotics.

**Key words:** medical practitioners, bacterial infections, economy accelerator, contraceptive pills, drug-resistant bacteria.





### **Benefits for human health**

The antibiotic plays a significant role in medical science. Doctors and medical practitioners use antibiotics to prevent infections, especially during surgeries. Today, the pharmaceutical market has a wide variety of antibiotics for the treatment of various bacterial infections, and a person can buy and use them anywhere and anytime. Important sites for antibiotic use include surgical wounds, ear infections, skin conditions, and vision problems.

### **Economy Accelerator**

Natural components found in abundance are the main ingredients of antibiotics. This feature makes it related to ancient medicines used thousands of years ago, and thus makes it quite effective. Many local people living in the forests and such environments have set up small businesses to produce antibiotics, keeping them clean and pure. Thus, antibiotics help to increase the income of local residents and the country as a whole.

### **Obesity**

A good health in childhood precious for the growth and development. The antibiotic use at this age can endanger the desired growth. Scientists have found that the exposure of antibiotics in children leads to an increase in body mass and fat. A child or a person face obesity at the small age which can become a cause of many other health conditions and diseases in old days.

### **Contraceptive pills failure**

The antibiotics affect the efficiency of the birth control pills. Though the cases involving a relationship between antibiotics and contraceptive pills are small, their interaction, at times, result in the ineffectiveness of the pill. And a woman might face an uncalled pregnancy, which can affect her mental well-being and physical health.

### **Drug-resistant bacteria**

Where the affordability and accessibility of the antibiotics have decreased the inequality among rich and poor sufferers, the same reasons have increased its unnecessary usage. Physicians all over the world prescribe antibiotics for a mild

infection or health issue. Such practices have led to the emergence of microbes resistant to the antibiotics. This problem has increased the already depriving health sector.

The antibiotics became so common that every person in this world had an exposure to it at some point. As of today, people and leaders world-over have realized the side-effects of extreme antibiotics usage. In the last few years, the international community and world health organization have convened several meetings regarding limiting the distress caused by the antibiotics. At the global level, the organizations must force and encourage scientists to find a solution in the name of mankind. And, at the domestic level, the governments must create awareness among the citizens regarding the side-effects of the excess usage. Also, an individual's duty is to have a complete knowledge of maintaining a personal hygiene and he must consult medical practitioners in cases of a health issue. A problem endangering entire society solves with a collective action and thus, everyone should work together to achieve a common goal.

#### **REFERENCES:**

1. Вялов С.С. Противомикробная терапия: алгоритмы выбора: Практическое руководство.- М., 2014.
2. Гилберт Д.Н., Моллеринг С.Р., Элиопулос Д.М., Сэнд А.М. Стэнфордский справочник: антимикробная терапия.- М., ЭКСМО, 2014.- 288 с.
3. Клинико-фармакологическая классификация лекарственных средств: учебно-методическое пособие / М.К.Кевра и др..- Минск: БГМУ, 2012.- 64 с.
- 4 Клиническая фармакология: учебник / под ред. В.Г.Кукеса.- М.: ГЭОТАР-Медиа, 2011.- 1056 с.

## CREATION OF ALGORITHMS FOR CALCULATING COEFFICIENTS IN PARTIAL POLYNOMIAL BASES OF KHAAR

**Abdirayimov Tojinur Normo‘min o‘g‘li**

(TATU 209-21 group master)

### ABSTRACT

In this article, parallel algorithms have been developed for digital signal processing on piecewise-polynomial basis of Haar which is based on Analog Devices' Blackfin ADSP-BF561 dual-core processors. Based on these algorithms, developing of dual-core parallel computing program on VisualDSP++ has been considered. Functional descriptions of the Blackfin ADSPBF561 dual-core processor architecture are given. The architecture and components of the processor core have been described.

**Keywords:** Blackfin processors family; ADSPBF561 processors; dual-core processors; processor architecture; digital signal processing; Haar basis function;

### INTRODUCTION

Today, digital signal processing technology is commonly being used in practice and with the help of it, it is increasing work efficiency. Digital signal processors and digital signal processing methods are used to solve problems in communications, radio engineering, electronics, acoustics, and seismology, television and control systems. Digital signal processors are manufactured by three major companies: Analog Devices, Freescale and Texas Instruments. These companies are also developing a multi-core signal processor designed to increase data processing capacity and processing speed. Blackfin ADSP-BF561 processors are a symmetrical dual-core special processor. The ADSPBF561 processor uses a hierarchical three-level memory model. The first level L1 memory operates at the clock frequency of the core, but the memory capacity is not very large. Each Blackfin core has its own 100 Kbytes of L1 memory and it includes:

- SRAM / cache 16 K bytes of command memory
- SRAM 16 K byte command memory
- SRAM / cache 32 K bytes of data memory
- SRAM 32 K bytes of data memory
- SRAM scratchpad 4 K bytes of RAM

**Multi-Core Connections.** The Single Application / Dual Core approach uses advanced linking tools to resolve interactions between cores and shared memory. Each kernel is defined by a PROCESSOR directive, and together is defined by two areas of memory (internal L2 memory and external memory) and one COMMON\_MEMORY (shared memory) directive.

**Both the PROCESSOR** directive and the COMMON\_MEMORY field can communicate with libraries as shown in Figure 2. Plibs libraries are represented directly according to PROCESSOR instructions. The objects of these libraries are private and are represented in the private memory of the A core or B core. Libraries specified as CLib are represented in the COMMON\_MEMORY field. The objects of these libraries are stored in shared memory and can be accessed by both cores. If external data is linked using these libraries, this data is represented in the COMMON\_MEMORY field and can be shared between core A and core B. Common code and data can be represented in the sml2 project in the L2 internal memory or in the sml3 project in the external memory.

**Processor Core Architecture.** Each core of the Blackfin ADSP-BF561 processor has two 16-bit multipliers, two 40-bit batteries, two 40-bit arithmetic logic devices (ALDs), four 8-bit video ALDs, and one 40-bit drive. Computing units process 8-, 16, or 32-bit data from a registry file.

There are three different types of software design for dual-core Blackfin processors on the VisualDSP++ platform: - Single-core applications. In this project, only core A is used, while core B is not active. - One application per core. In this project, each bar core is seen as a separate processor. VisualDSP++ creates a .dxs file for a specific core in the project. Resource sharing is managed by programmers.



## CONCLUSION

As can be seen from Table 1, a dual-core processor consumes 1.9 to 1.98 times less time than a single-core processor. Hence, the parallelization of calculations using multi-core processors allows to reduce the time spent and increase the efficiency compared to single-core computing. The main advantage of developing parallel applications for dual-core processors on the VsualDSP++ platform is that, it creates a separate subprogram for each core and shared memory. This allows different calculations to be performed in parallel at the same time in each core. The two cores can use the common data and functions represented in the L2 shared memory project in parallel at the same time.

## REFERENCES:

- [1] Allen Dj. Architecture processors for digital signal processing. M .: Technosphere, 2006, 279p.
- [2] Sotnikov A. Features of architecture and programming of dual-core processors of the Blackfin family ADSP-BF561 // Components and technologies. 2007. №6.
- [3] Valpa O.D. Development of devices based on digital signal processors of the company Analog Devices with the use of Visual DSP++. - M .: Hot line - Telekom, 2007. - 270 p.

## THE ROLE OF VITAMINS IN OUR LIFE

**Xalilova Farida**

Zangota Abu Ali Ibn Sino nomidafi Jamoat salomatligi texnikumi

**Nuriddinova Kamola**

Zangota Abu Ali Ibn Sino nomidafi Jamoat salomatligi texnikumi

### ABSTRACT

The importance of vitamins for our health can hardly be overestimated. Probably, everyone has heard that vitamins and minerals are part and parcel of a healthy diet. Unfortunately, statistics says that today people all over the world consume too much calories and too little essential nutrients and vitamins. Lack of vitamins, known as vitamin deficiency, influences the state of our skin, hair, nails, teeth and bones. In more serious cases it can cause heavy diseases – spasms, loss of hair and teeth, loss of vision, hepatic disorders, skin diseases, and many others.

Vitamins are a natural living compounds required in the diet humans eat for normal growth and maintenance of life. Vitamins function as “cofactors” in metabolisms of products in the body. Vitamins can’t replace food. Vitamins must be supplied in the diet or in the dietary supplement. That’s why doctors suggest taking vitamins with a meal. A well-balanced diet including plenty amounts of fruit and vegetables plus eggs, meat, and fish. Vitamins help regulate metabolisms. They also help convert fats and carbohydrates into energy and assist in building bones and tissue. Most foods we eat contain vitamins. For those who don’t eat certain food that contains the vitamins they need, can buy vitamins in pill and capsule form. Vitamins differ widely in chemical structure. Therefore, there is no common chemical grouping. Vitamins are classified alphabetically. Fat-soluble vitamins are stored in body fat, where they may be combined in amounts that can become toxic. Examples of fat

soluble vitamins are vitamins A, D, E, and K. Vitamin A, also called retinol, helps with growth, vision, having healthy tissue, skin, and hair, and helps resistance to getting infections. You can get sources of Vitamin A by involving milk, butter, eggs, liver, and leafy green and yellow vegetables to your everyday diet. Symptoms when you don't get enough of this vitamin consist of night blindness, itching, dry skin, and the loss of sense of taste. Vitamin D functions with bones, teeth, good calcium, and phosphorus metabolism. You can get sources of vitamin D by eating milk, cod liver-oil, tuna, salmon oil, and eggs. You can also get this vitamin from exposure to sunlight. It is important in pregnancy and for newborn infants. Symptoms when you don't get enough of this vitamin consist of soft bones and teeth, spontaneous fractures, and bone curvature. Vitamin E helps with protecting cell membrane and tissue, maintains circulatory system, and Antioxidant. You can get Vitamin E through vegetable oil, grains, wheat germ, and lettuce. Symptoms when you don't get enough of this vitamin, consist of poor muscular and circulatory performance.

All in all, there are over thirty vitamins, and some of them are incorporated into groups. Vitamins themselves don't have any nutritional value, in other words, they don't contain any calories and can't serve as sources of energy. They relate to micronutrients that are contained in food. So, to be healthy, we need to eat several types of food: fruit and vegetables, fish and meat, and milk products. Vitamins can be divided into two large groups: fat-soluble and water soluble ones. As the term suggests, water soluble vitamins are dissolved in water, while the fat-soluble ones are dissolved only in fats. The first group includes vitamin C and B-group vitamins. Such vitamins as A, E, D and K belong to the second group, and they can be stored in our organism. That's why we lack vitamins of the first group more often.

The most essential vitamins for children are D, C and A. For example, vitamin D is responsible for the healthy development of bone tissues and teeth, as well as for calcium absorption. Its deficiency often causes rickets, which is especially dangerous for girls. People get it with sunshine, but if you live in the northern regions, where sunny days occur not very often, you should take enough D vitamins with food. It is

contained, for example, in egg yolk, butter, cod liver oil. Babies get all vitamins with breast milk, so, breastfeeding women should eat these products. Vitamin A is responsible for the growth and good vision. It's contained in beef liver. Greenery, carrots, tomatoes, and some other vegetables contain a lot of carotene, which if taken inside with any fat, is converted into vitamin A. As for vitamin C, it's very important for the immune system. It can be found almost in all fresh fruit and vegetables, especially in kiwi, black currant, briar, and sweet pepper. Vitamin B9, which is also known as folic acid is a very important element for women. It is absolutely indispensable during pregnancy and breastfeeding. Also it regulates nervous system activity and helps to combat depression. It is contained in green vegetables, liver, wholemeal bread, honey. Vitamin E is one more “female” vitamin. It is a natural antioxidant, which inhibits the process of senescence, regulates the reproductive system activity and has a good effect on the state of skin, hair and nails. Sometimes it is even described as the “vitamin of beauty”. It can be found in crude vegetables oils, nuts, and wheat germ.

So, if you wish to be healthy, energetic and have a healthy appearance, pay careful attention to your diet. Try to choose natural food containing all basic vitamins and minerals. Your daily ration must include enough fresh fruit and vegetables, crude oil and wholegrain bread. Also try to eat fish or sea products at least twice a week.

### REFERENCES:

1. Хайтинг, Г. (2015). Витамин А и бета-каротин: польза для глаз. Все о зрении. Проверено 11 апреля 2015 года с [http://www.allaboutvision.com/nutrition/vitamin\\_a.htm](http://www.allaboutvision.com/nutrition/vitamin_a.htm)
2. Nhs.uk , (2015). Витамины и минералы - Витамин А - Выбор NHS. Проверено 11 апреля 2015 года с <http://www.nhs.uk/Conditions/vitamins-minerals/Pages/Vitamin-A.aspx>
3. Пеннистон, К., и Танумихарджо, С. (2005). Острые и хронические токсические эффекты витамина А1, 2, 3, 4. Американский журнал клинического питания, 83 (2), 191-201.



## METHOD OF CALCULATING GLOBAL BLOOD FLOW IN THE HUMAN BODY USING HETEROGENEOUS CALCULATION MODEL

**Sharipov Daler Kuchkarovich**

(TATU Scientific adviser)

**Soliyeva Dilfuza Tulkin kizi**

(TATU master)

### ABSTRACT

In the article as a basis for the global blood flow model (that is, a closed model describing the blood circulation in general) it is proposed to use a quasi-dimensional nonlinear model of the pulsating flow of a viscous incompressible fluid through an elastic tube.

**Key words:** blood flow model, calculation models, calculation methods, mathematical model, numerical algorithm.

### INTRODUCTION

The mechanics of blood flow have been the focus of many researchers for quite some time. The first works in this field belong to Euler and later Jung, who in 1808 mathematically analyzed the wave nature of blood flow in arteries and calculated the speed of the pulse wave [1]. However, the first realistic model describing pulsatile blood flow and arterial pressure appeared much later [2]; he used the linear Navier-Stokes equation and treated the vessel as a uniform rigid tube. Modern methods of studying pulsatile blood flow are very complex and diverse.

## STATEMENT OF THE PROBLEM

As the main mathematical model of blood flow, it is proposed to use a quasi-dimensional non-stationary model of incompressible fluid flow through a tube with thin, elastic walls.

$$\partial S_k / \partial t + \partial (u_k S_k) / \partial x = \varphi_k (t, x, S_k, u_k, r_i)$$

$$\partial u_k / \partial t + \partial (u_k^2 / 2 + p_k / \rho_k) / \partial x = \psi_k (t, x, S_k, u_k, r_i)$$

where  $t$  is time;  $x$ -coordinate along the length of the vein calculated from the point of conjugation with the veins of young generations;

$S$ -blood density (in this work, it was assumed to be equal to  $1\text{g/cm}^3$ );

$k$ - vessel number

$p$ - section of the vessel

$PS$ - average linear flow velocity along the section

$t$ - pressure in the vessel, calculated from the atmosphere;

$UK$ - a term describing the flow or flow of blood, which can be used, for example, for modeling blood loss in damage to the vessel walls, blood transfusion, etc.;

- a term describing the change of momentum under the influence of external forces (gravity, friction, etc.);


A set of parameters describing -i.

OE effect on  $k$ -tube. The elastic properties of the vessel walls can be called the "equation of state", which determines the dependence of the cross section of the vessel on the pressure in this part:

$$P_k - P_{*k} = \rho c_k^2 f_k(S_k)$$

Real blood flow in the area of bifurcation of blood vessels has a very complex structure.

Individual chambers may have additional connecting channels (and ventricular defects) (Fig. 1).



**Picture. 1. Diagram of the four-chamber model of the heart, taking into account the defects of the interchambers**

First of all, it is necessary to highlight some difficulties that arise in the practical application of the considered models, because they are characterized by many parameters that determine their structural and physical-mechanical properties.


Determination of parameters was carried out by comparing experimental data and the results of test calculation experiments that consider the functioning of the circulatory system under normal conditions.

The methodology of the preliminary calculations, as well as the obtained results, are described in detail. Development of numerical methods used for calculation, as well as analysis and

### **Blood flow in large and small arteries**



**Picture. 2. Propagation of pressure waves through the arteries of pulmonary circulation**



### **Picture. 3. Propagation of pressure waves along the arteries of a large circle of blood circulation**

#### **Summary**

Computational results using dynamic models of blood flow in large vessels and heart presented in this work showed the possibility of their practical application. Naturally, some tasks may require a detailed description of the structure of the blood vessel graph, as well as a more accurate selection of parameters. However, these difficulties do not pose major limitations and can be easily overcome when appropriate experimental data are available.

#### **REFERENCES:**

1. Kumar, Abbas, Fausto: Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease, 7th, 556.
2. Womersley JR, A method for calculating velocity, flow rate, and viscous drag in arteries when the pressure gradient is known. // J. Physiology, Vol. 127, pp. 553-563, 1955.
3. Womersley JR, Velocity profiles of oscillatory arterial flow with some calculations of viscous drag and Reynolds number. // J. Physiology, Vol. 128, pp. 629-640, 1955.





## ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИГА ОИД СТАНДАРТЛАРНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТ ТАЛАБЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛАШТИРИШНИНГ ЎРНИ

**Хаминов Бурхон Тургунович**

Техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент.

**Азимов Маъруф Мансурович**

“Ўзбекистон миллий метрология институти”

Давлат муассасаси Қўқон филиали раҳбари

**Умаров Содикжон Ахмадали угли**

Тошкент давлат техника университети Қўқон филиали талабаси

### АННОТАЦИЯ

Мамлакатимиз мустақилликка эришгач барча соҳаларда, шу жумладан стандартлаштириш соҳасида ҳам тубдан ўзгартиришларни бошдан ўтказди. Унда собиқ иттифоқ стандартларидан воз кечилиб, янги миллий ва халқаро стандартлар билан уйғунлаштирилган стандартлар қабул қилинди. Бунда уйғунлаштирилган стандартлар аҳамияти катта.

**Kalit so‘zlar:** dehqonchilik, qishloq xo‘jaligi, mahsulot, milliy standart.

### АННОТАЦИЯ

После обретения независимости в нашей стране произошли радикальные изменения во всех областях, включая стандартизацию. Он отказался от старых профсоюзных стандартов и принял новые национальные и международные стандарты. Гармонизированные стандарты важны.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, сельское хозяйство, продукт, национальный стандарт.

## ABSTRACT

After gaining independence, our country has undergone radical changes in all areas, including standardization. It abandoned the old union standards and adopted new national and international standards. Harmonized standards are important.

**Keywords:** agriculture, agriculture, product, national standard.

Маълумки, таълим тизимини ривожлантириш давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида эътироф этилмоқда. Бугунги кунда олдимизга қўйган буюк мақсадларимизга, эзгу ниятларимизга эришишимиз, жамиятимизнинг янгиланиши, ҳаётимизнинг тараққиёти ва истиқболи, амалга ошираётган ислохотларимиз, режаларимизнинг самараси тақдири энг аввало, замон талабларига жавоб берадиган юқори малакали, онгли мутахассис кадрлар тайёрлаш муаммоси билан чамбарчас боғлиқ. Бугун ҳаётимизнинг ҳал этувчи муҳим масалалари қаторида таълим тарбия мазмунини тубдан ўзгартириш, уни замон талаби даражасига қўтариш асосий ўринни эгаллайди.

Ўзбекистон Республикасида олиб борилаётган эътиборга молик давлат сиёсати йўналишларидан бири бу озиқ-овқат бўйича мустақилликка эришишдир. Чунки ўз аҳолисини етарли озиқ-овқат билан таъминлаб бера олмайдиган ва асосан импорт қилинган маҳсулотлар ҳисобига яшайдиган мамлакатнинг тинчлиги, ҳаёт даражаси ва керак бўлса мустақиллиги ҳам ўша экспортёр давлатга боғлиқ бўлади. Пахта экиладиган ерларни камайтириб, уларни аҳолига деҳқончилик қилиш учун бўлиб берилиши бу соҳадаги ишларнинг бошланиши эди. Ўз пайтида қабул қилинган тўғри қарор ва ишлар натижасида орадан кўп вақт ўтмай мамлакатимиз нафақат бу соҳада мустақилликка эришди, балки қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экспорт қилувчи мамлакатлардан бирига ҳам айланиб улгурди. Ўзбекистон аҳолиси дастурхонларига сифатли ва хавфсиз бўлган озиқ-овқатларни етаказиш, янги нав ва янги тур ўсимликларни иқлимлаштириш бугунги куннинг мавзусидир.

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг сифатини янада юқорироқ босқичга чиқаришни ҳозирги замон бозори талаб қилмоқда. Шунинг учун бу соҳадаги стандартлар ўрнига юқорироқ талаблар белгиланган стандартларни қабул қилиш, халқаро стандартларга миллий стандартларни уйғунлаштириш масаласи долзарб муаммолардан ҳисобланмоқда. Шунингдек қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспорти деҳқон ва фермерларга катта даромад келтиради. Буни ҳисобга олган ҳолда мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш, сақлаш, қайта ишлаш ва етказиб бериш ишларига катта аҳамият берилмоқда. Ер юзи аҳолисининг тез кўпайиб бораётгани билан озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиш имкониятлари чеклангани ўртасидаги тафовут озиқ-овқат дастурини ҳал этиш масаласи йилдан-йилга кескинлашиб бораётганининг асосий сабаби экани ҳақида бугун ортиқча гапиришнинг ҳожати йўқ, деб ўйлайман [2]. Бугунги кунда жаҳон тараққиётининг дунёвий муаммоларини ҳал қилишнинг асосий унсурларидан бири сифатида стандартлаштиришнинг роли ошиб бормоқда. Шу муносабат билан айтиш мумкинки, стандартлар- такомиллаштиришнинг муҳим қуролидир. Стандартлар жараёнлар, маҳсулотлар ва хизматларнинг ўзаро алмашинувчанлигини ва синовлар натижалари ёки ушбу стандартларга мувофиқ тақдим этилган маълумотларнинг ўзаро тушунилишини таъминлайди [1]. Халқаро стандартларни қўллаш ва ривожланган давлатлар миллий стандартларидан фойдаланиш мамлакатимизда стандартлаштириш соҳасида устивор йўналишлардан ҳисобланади. Сўнгги йиллар давомида республикамизда амалдаги сифат тузилмаларини халқаро талабларга мувофиқлаштириш борасида ишлар олиб борилиб, миллий тандартларни тадбиқ қилиш ва қўллаш халқаро стандартларга мувофиқ ҳолда амалга оширилмоқда. Қишлоқ хўжалик маҳсулотларининг хавфсизлигини таъминлаш, унинг сифати, рақобатбардошлиги ва экспорт ҳажмини ошириш муҳим вазифа ҳисобланади. Ушбу вазифани амалга ошириш учун аграр соҳадаги миллий стандартларни халқаро (ИСО) ва ҳудудий (ЭН) стандартлар билан уйғунлаштириш

позитсиясини кучайтириш керак. Бу эса ички ва ташқи савдодаги техник тўсиқларни бартараф этиб, юртимиз ишлаб чиқарувчиларини Европа ва жаҳон бозорида фаолият юритишига шароит яратади. Халқаро ва Европа стандартларини уйғунлаштириш ва қўллаш учун Миллий стандартлаштириш тизимида иккита асосий вариантни кўриш мумкин: тўғридан - тўғри ва билвосита. Тўғридан-тўғри қўллаш – Халқаро ёки ҳудудий стандартни бошқа ҳар қандай меъёрий ҳужжатда қабул қилинганлигига қарамасдан мазкур халқаро ёки ҳудудий стандартларни қўллаш. Билвосита қўллаш – Халқаро ёки ҳудудий стандартни шу стандарт қабул қилинган бошқа меъёрий ҳужжат орқали қўлланилиши. Мамлакатимиз мустақилликка эришгач барча соҳаларда, шу жумладан стандартлаштириш соҳасида ҳам тубдан ўзгартиришларни бошдан ўтказди. Унда собиқ иттифоқ стандартларидан воз кечилиб, янги миллий ва халқаро стандартлар билан уйғунлаштирилган стандартлар қабул қилинди. Бунда уйғунлаштирилган стандартлар аҳамияти катта. Чунки қанчалик яхши стандарт ишлаб чиқилмасин, агар бу жаҳон бозорига чиқиш имконини бермаса, унда у стандарт жаҳон миқёсидаги ўйинчилардан бирига айланиш имкониятини бермайди. Ҳар бир қабул қилинган стандарт мамлакат юксалишига хизмат қилиши керак. Халқаро стандартлар билан уйғунлаштирилган стандартлар эса бу йўлда бизга асос бўла олади. Чунки у ривожланган мамлакатларнинг илм-фани ютуғи, шу соҳадаги бой тажрибасини акс эттиради. Агар биз улардан самарали фойдалана олсак бу бизга ҳам иқтисодий даромадни, ҳам маҳсулотларимиз сифатини ошириш учун қўл келади. Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ҳозирда дунёда аҳоли сони катта суръатлар билан ўсиб бораётган бир даврда, уларни озиқ-овқат билан таъминлаш долзарб масалалардан биридир. Бизнинг Ватанимиз тупроғи серҳосил ва унумдор. Шуни ҳисобга олган ҳолда яқин келажакда Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экспорт қилувчи асосий мамлакатга айланиши мумкин. Лекин бу борадаги энг катта муаммолардан бири бу етиштирилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини йўқотилишининг кўплигидир. Уларнинг аксарияти истеъмолчиларга етиб



бормасдан ўз хусусиятларини йўқотиб қўяди. Ривожланган мамлакатларда эса бундай йўқотилишлар анчагина паст даражада. Шунинг учун миллий стандартларни халқаро стандарт талаблари билан уйғунлаштириш бугунги куннинг даромад келтирувчи муҳим масалаларидан биридир.

### **АДАБИЁТЛАР: (REFERENCES)**

1. Исматуллаев Р., Ш.А.Тўраев, О.Адилов, Б.Х.Исмоилов “Ўзбекистон қишлоқ хўжалик маҳсулотлари сифати ва хавфсизлигини таъминлашда ГлобалГ.А.П стандартини жорий этишнинг аҳамияти” Т.: 2011 й

2. Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С. Алимов М.Н., Хакимов О.Ш., Хван В.И. “Стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш, сифат” – Тошкент: 2008

3. [www.реферат.уз](http://www.реферат.уз)

## TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

**Rasuleva Maprat Rafikovna**

Toshkent amaliy fanlar universiteti

E-mail: [mrasulova1964@gmail.com](mailto:mrasulova1964@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'limda axborot texnologiyalarini o'rni, dars mashg'ulotlarida axborot texnologiyalarini qo'llash orqali dars sifati va yoshlarni IT sohasiga qiziqishlarini oshirish, bundan tashqari ta'limda multimedia vositalarini afzalliklari tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** Axborot, kommunikatsiya, texnologiya, audio signal, video signal, multimedia, individual, motivasiya, kompyuter, informatika

### INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION

#### ABSRTACT

In the article the author analyzed the role of information technology in education, the quality of the lesson and the increasing interest of young people in IT through the use of information technology in classrooms, as well as the benefits of multimedia in education.

**Keywords:** Information, Communication, Technology, audio signal, video signal, multimedia, individual, motivation, computer, informatics.

XX asrning 50-yillarida EHMning paydo bo'lishi va ulardan foydalanish imkoniyatining jadal oshib borishi bilan mehnatni avtomatlashtirish, axborot mahsulotlari va xizmati bozorining yuzaga kelishiga asos bo'ldi. XXI asr axborot asri, axborot texnologiyalari asri ekanligi barchamizga ma'lum, bu asrda savodxon kishi

bo‘lish uchun avvalo kompyuter savodxonini bo‘lish, axborot texnologiyalarini puxta egallamoq lozim.

Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o‘zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog‘liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog‘liqdir. O‘quv fanlari bo‘yicha elektron o‘quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o‘z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo‘yicha bilimlarini chuqur o‘zlashtirishlarining asosiy omili bo‘lib, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa’y-harakatlar amalga oshirilishi ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o‘qituvchilarni ilg‘or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta’lim muassasalari tajribasini chuqur o‘rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta’lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Kompyuterlarni ta’lim tizimida qo‘llash g‘oyasi ancha ilgari paydo bo‘lgan bo‘lgan bo‘lsada, ta’lim tizimining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini qo‘llash multimedia qurilmalari bilan jihozlangan kompyuterlar paydo bo‘lgach to‘liq ma’noda amaliyotga joriy etilib boshlandi. Multimedia vositalarini ta’limda qo‘llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta’limning gumanizasiyalashuvini ta’minlash;
- o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish;
- ta’lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o‘zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta’lim olish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini o‘zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llay olishi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, mehnatga bo‘lgan munosabati);
- ta’lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- kompyuter vositalari va axborot elektron ta’lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta’lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta’limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;

- ta’lim oluvchiga faol bilim oluvchi subyekt sifatida qarash, uning qadrdimmatini tan olish;

- ta’lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;

- mustaqil o‘quv faoliyatini olib borish, bunda ta’lim oluvchi mustaqil o‘qib va rivojlanib boradi;

- ta’lim oluvchilarda, o‘zlarining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun hozirgi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish.

Mamlakatimizning yangi taraqqiyoti davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish, elektron resurslar va masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish, ta’lim oluvchilar o‘rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirishga davlatimiz rahbari tomonidan alohida e’tibor qaratilayotganligi, ta’lim tizimida ham raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati qanchalik yuqori ekanligini ko‘rsatib bermoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. «O‘zbekistan Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakteristik strategiyasi to‘g‘risida»gi F-4947-sonli Farmoni.

2. S.S.G‘ulomov va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik / Akademik S.S. G‘ulomovning unuimiy tahriri ostida. - T., «Sharq», 2000.

3. O‘zbekistan Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent oqshomi. 2020 yil, 25 yanvar. № 13 (14064).

4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).



## **IXTISOSLIK FANLARNI XORIJIY TILDA O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI**

**Akobirova Madina Bo‘ronovna**

Buxoro davlat universiteti

“Elektronika va texnologiya” kafedrası o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Oliy ta’lim tizimining texnologik ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarni xorijiy tilda o‘qitish jarayonida talabalarning ingliz tilidagi kommunikativligini oshiruvchi interfaol o‘yinlardan foydalanishning afzalliklari yoritilgan.

**Tayanch so‘zlar:** interfaol o‘yin, innovatsion metodlar, kompetentlik, kasbiy faoliyat, ixtisoslik, texnologiya, ko‘nikma, didaktik materiallar, interfaol metodlar, salohiyat, ped texnologiya.

## **ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ ИГР В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛЬНЫМ НАУКАМ НА ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ**

**Акобирова Мадина Буруновна**

Бухарский государственный университет

Преподаватель кафедры «Электроника и технологии»

### **АННОТАЦИЯ**

Выделены преимущества использования интерактивных игр, повышающих коммуникативные способности студентов на английском языке, в процессе преподавания профильных предметов на иностранном языке при подготовке

студентов, обучающихся в сфере технологического образования системы высшего образования, к профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** интерактивная игра, инновационные методы, компетентность, профессиональная деятельность, специализация, технология, умения, дидактические материалы, интерактивные методы, компетентность, педагогическая технология.

## **THE SIGNIFICANCE OF INTERACTIVE GAMES IN TEACHING SPECIAL SCIENCES IN A FOREIGN LANGUAGE**

**Akobirova Madina Buronovna**

Bukhara State University

Lecturer at the Department of Electronics and Technology

### **ABSTRACT**

The advantages of using interactive games that increase the communication skills of students in English are highlighted in the process of teaching specialized subjects in a foreign language in preparing students studying in the field of technological education of the higher education system for professional activities.

**Key words:** interactive game, innovative methods, competence, professional activity, specialization, technology, skills, didactic materials, interactive methods, competence, pedagogical technology.

Bugungi kunda ta'limda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. Ixtisoslik fanlarini chet tilida o'qitishda o'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini talabani faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik

mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda barqaror o‘rnini topish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o‘yin zamirida umumiy qabul qilingan ta’lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O‘quv o‘yinlariga o‘quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O‘yinlar jarayonida o‘quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg‘ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko‘rsatadi.

Ta’kidlash lozimki, o‘yin eng avallo, o‘qitishning bir usulidir. Talabalar o‘yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g‘alaba qozonishga intiladilar, o‘qituvchi ular orqali talabaga ta’lim-tarbiya ham beradi. O‘quvchi inglizcha o‘yin o‘ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi.

Biz bilamizki, hozirgi ta’lim jarayonida o‘quvchi sub’ekt bo‘lishi lozim. Bunda ko‘proq interfaol metodlarga e’tiborni qaratish ta’lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tilida olib boriladigan mutaxassislik fanlari darslariga qo‘yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o‘qituvchilari Amerika Qo‘shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

- “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo‘llash uchun hikoyaning boshlanishi o‘qib beriladi qanday yakun topishi talabalar hukmiga havola qilinadi;

- “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) talabalarga topishmoqlar o‘rgatish Ingliz tilini o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o‘zlariga notanish bo‘lgan mutaxassislikka oid so‘zlarni o‘rganadilar va o‘ylab topishmoq javobini topadilar;

- “Tezkor javob” (Quick answers) o‘tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;

- “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) talabalarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o‘yinlardan foydalanish;

- “Pantomima” (Pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo‘lgan darsda yoki yozma va amaliy mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo‘ladi;

– “Hikoya zanjiri” (A chain story) usuli o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishda yordam beradi;

– “Rolli o‘yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo‘llanilishi mumkin. Hunarga o‘rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o‘quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;

– “Allomalar yig‘ini” (Thinkers meeting) U. Shekspir, A. Navoiy, R. Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so‘zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo‘lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

– “Rasmlar so‘zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo‘lib, ingliz tilini o‘rgatishda, talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid didaktik tarqatma materiallar, rasmlardan foydalanish lozim;

– Kviz kartochkalari (quiz cards) o‘quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi.

Ko‘rib chiqqanimizdek, har bir innovatsion texnologiya o‘ziga xos afzallik jihatlarga egadir. Bunday usullarning barchasida sub’ekt va obyekt o‘rtasidagi hamkorlik, talabalarning ta’lim jarayonidagi faol harakati ko‘zda tutiladi. Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to‘g‘ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar talabada bilimga ishtiyoq uyg‘otadi. Talaba darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi. Bu esa talabalarni ta’lim jarayonining faol sub’yektlariga aylantiradi.

Ta’lim tizimi o‘z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo‘yar ekan, kelgusida biz o‘qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimiz bilan o‘z hissamizni qo‘shishimiz mumkin.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Akobirova M.B. Teaching technology of hands crafts subject into English language. Asian journal of multidimensional research (AJMR). Vol 10, Issue 10, October, 2021.
2. Akobirova M.B., Sayfullayeva D.A., Navruzova S.T., Islamova Sh.K. “The role of "folk craft" science in improving the living culture and spirituality of the people”. “Current research journal of pedagogics. Volume 02 issue 12 December 2021. SJIF 2021: 5.714 B 135-139
3. Акобирова М.Б. История развития формы и конструкции одежды. Бухарский инженерно-технологический институт материалы международной научно-практической конференции “Проблемы и перспективы развития инновационного сотрудничества в научных исследованиях и системе подготовки кадров”. BUXORO 24-25 noyabr 2017 yil. B 150-152
4. Акобирова М.Б. Fation is also limited. Бухарский инженерно-технологический институт материалы международной научно-практической конференции “Проблемы и перспективы развития инновационного сотрудничества в научных исследованиях и системе подготовки кадров”. BUXORO 24-25 noyabr 2017 yil. B 268-270
5. Акобирова М.Б. Методы изготовления лекал одежды. Сборник статей XVIII международной научно-практической конференции “WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS”, Состоявшейся 28 февраля 2018г.вг.Пенза, Часть 1. Стр 51-54
6. Акобирова М.Б. A communicative approach to teaching students in English of their specialties. “Хорижий тилларни ўқитишда замонавий технологияларнинг муаммолари ва истикболлари” мавзусида халқаро илмий-амалий конференция. 26 ноябрь ,Тошкент 2021. Б.306-310
7. Сайфуллаева Д.А. Методы математического описания контуров лекал швейных изделий, методы линейно-круговой аппроксимации. Молодой Учёный международный научный журнал.2016.- №11 часть IV.-С.459-461
8. Sayfullayeva D.A Innovative and Individual Approach in Professional and Vocational Training of Young People with Disabilities. Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 6- 2017 Part I.- P.154-157
9. Olimov Kakhramon Tanzilovich, Sayfullaeva Dilafruz Ahmedovna, Khimmataliev Dustnazar Omonovich, Ashurova Sanobar Yuldashevna, Gaffarov Feruz Hasanovich. Teaching Special Subjects for Students with Disabilities in Preparation for the Profession by Using Innovative Educational Technologies. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1S, November 2019.B.425-429

10. Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva, Kakhkhorov Sobir Kh., Bahronova Sh.I. INCREASING THE PROFESSIONAL CREATIVITY OF STUDENTS IN TEACHING SPECIALTIES. Проблемы современной науки и образования. НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ. 2020. № 12 (157). Часть 2 С.33
11. Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva, Inamov Dilmirza Dedamirzayevich, Savriyeva Iqbol Bahodirova, Qaxorov Sobir Xudoyberdiyevich. LEVELS OF ACTIVATION THE ACTIVITIES OF STUDENTS/ EPRA International Journal of Environmental Economics, Commerce and Educational Management. 2020.-В 28-31
12. Dilafruz Ahmadovna Sayfullayeva. “Methodology of using innovative technologies in technical institutions”. PSYCHOLOGY AND EDUCATION. Scopus International Journal.(2021) 58(1)
13. Сайфуллаева Д.А Пути повышения эффективности преподавания специальных дисциплин. International conference on science and education. Turkey.- 2021. В.72-74
14. Sayfullayeva D.A, Rustamov E.T, Rayimova D.D, Jabborova M. J., Faridov M. F. CHARACTERISTICS OF TECHNICAL CREATIVITY IN TECHNOLOGICAL EDUCATION. Innovative technologica methodical research journal.2021.В-37-41
15. Akobirova Madina Bo‘ronovna. Texnologiya fanlarini o‘qitishda ingliz tilining ahamiyati. “Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnal.-2022. В. 230-235
16. Akobirova Madina Bo‘ronovna, Sayfullayeva Dilafro‘z Axmadovna. Texnologik ta’lim yo‘nalishida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanini innovatsion texnologiyalardan foydalanib xorijiy tilde o‘qitish. “Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnal.-2022. В.224-230

**TABLE OF CONTENTS**

<b>Sr. No.</b>	<b>Paper/ Author</b>
<b>1</b>	<b>“MAHSULOT VA XIZMATLARNI SERTIFIKATLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA” GI QONUN SHARHLARI</b> Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o‘g‘li <b>Page No.: 3-5</b>
<b>2</b>	<b>ОИЛАВИЙ ШАХСЛАРАРО МУНОСАБАТЛАР ФАРЗАНДЛАР ХАРАКТЕР АКЦЕНТУАЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНИШИ ОМИЛИ ЭКАНЛИГИ</b> Кулдашева Камола Ахмадалиевна <b>Page No.: 6-11</b>
<b>3</b>	<b>“MU’JAM UL-UDABA” ASARINING ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI QO‘LYOZMALAR XAZINASIDA SAQLANYATGAN TOSHBOSMA NUSXASI TAVSIFI</b> Madiyor Fattiloyev <b>Page No.: 12-16</b>
<b>4</b>	<b>ABDULLA QAHHOR ASARLARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI</b> Isroilova Hulkar Baxtiyor qizi <b>Page No.: 17-20</b>
<b>5</b>	<b>POSITIVE AND NEGATIVE EFFECTS OF ANTIBIOTICS</b> Yusupbekova Xurshida, Zufarov Fozil <b>Page No.: 21-23</b>
<b>6</b>	<b>CREATION OF ALGORITHMS FOR CALCULATING COEFFICIENTS IN PARTIAL POLYNOMIAL BASES OF KHAAR</b> Abdirayimov Tojinur Normo‘min o‘g‘li <b>Page No.: 24-26</b>
<b>7</b>	<b>THE ROLE OF VITAMINS IN OUR LIFE</b> Xalilova Farida, Nuriddinova Kamola <b>Page No.: 27-29</b>

8

**METHOD OF CALCULATING GLOBAL BLOOD FLOW IN THE HUMAN BODY USING HETEROGENEOUS CALCULATION MODEL**

Sharipov Daler Kuchkarovich, Soliyeva Dilfuza Tulkin kizi

**Page No.: 30-33**

9

**ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИГА ОИД СТАНДАРТЛАРНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТ ТАЛАБЛАРИ БИЛАН УЙЎНЛАШТИРИШНИНГ ЎРНИ**

Хаминов Бурхон Тургунович, Азимов Маъруф Мансурович,  
Умаров Содикжон Ахмадали угли.

**Page No.: 34-38**

10

**ТА’ЛИМ ТИЗИМИДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ**

Rasuleva Maprat Rafikovna

**Page No.: 39-41**

11

**ИХТИСОСЛИК ФАНЛАРНИ ХОРИЖИЙ ТИЛДА О’ҚИТИШДА  
INTERFAOL METODLARINING АҲАМИЯТИ**

Akobirova Madina Bo‘ronovna

**Page No.: 42-47**





## “Educational Research in Universal Sciences”



## “INTERNATIONAL CONFERENCE ON INNOVATIVE DEVELOPMENT OF EDUCATION 2022/20”

[www.erus.uz](http://www.erus.uz)

**Languages of publication:** o‘zbek, english, русский, казак, точик

**TASHKENT, UZBEKISTAN**  
**2022/ DECEMBER 28**